

**NOMODDIY MADANIY MEROS VA UNI MUHOFAZA QILISH
MASALALARI**

A. Usmonov,

o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, O'zbekiston, Farg'ona sh.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada nomoddiy madaniy meros va uni muhofaza qilish masalalari xususida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: nomoddiy madaniy meros, aqliy vazifa, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, tarixiy yodgorliklar, insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxati.

KIRISH

O'zbek xalqining o'tmishi uzoq tarixga borib taqaladi. Bu davr ichida xalqning ham moddiy, ham ma'naviy madaniyati jahon sivilizatsiyasining o'lmas namunalari sifatida aylandi. Xususan, o'zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi asrlar osha ajdodlar tomonidan sayqallanib, xalqning bebaho mulki bo'lish bilan bir qatorda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sub'ekti sifatida baholandi. Zero, nomoddiy madaniy meros insonni tarbiyalaydi, ulug'laydi. Tabiat va hayot go'zalligini ochib beradi. Unga mehr – muhabbat munosabatini oshiradi. Shu bilan birga nomoddiy madaniy meros muhim aqliy vazifani ham bajaradi. «Biz har qanday qobiliyatda yozilgan asarni hayotimizdagi faktlarni o'rganishga ko'maklashganligi uchun qadrlaymiz va e'zozlaymiz», deb yozadi Gyote.

O'zbek xalqi umumjahon madaniyati rivojlanishiga o'zining sezilarli hissasini qo'shgan va ayni vaqtda umuminsoniy madaniyatdan oziq olib rivojlangandir. Albatta buning zamirida o'zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi va uning o'lmas namunalari turgan. Qadim o'tmishimizda ham ajdodlarimiz nomoddiy madaniy merosimizga boshqacha mehr bilan qarashgan. Ijtimoiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlari tufayli vujudga keladigan yangiliklar voqelikka aylanadi. Bu yangi narsa eskidan olinib, mukammalroq bo'ladi. Natijada, xalq ijodiyotining ajoyib namunalari har bir davrda rivojlanib, yangilanib boradi. Xalq ijodi ayni vaqtda bu jarayon insoniyatning badiiy tajribasidagi an'analarni o'zlashtirish bilan ham bog'liqdir.

MAVZUNING O'RGANILGANLIK DARAJASI

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov o'zining bir qator asarlarida milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini hal qilishda asosiy vazifa sifatida ma'naviyatni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilish, ularning bu jarayondagi o'rni va rolini yaxshi anglab yetish lozimligini alohida ta'kidlab o'tgan. Shu bilan birga har qanday xalq yoki millatni unga tegishli bo'lgan ma'naviyat, tarix, o'ziga xos urf-odat va an'analar, hayotiy qadriyatlardan ayri holda tasavvur etib bo'lmasligi qayd etilgan. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillar bo'lib xizmat qiladi.

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish maqsadida YUNESKO tomonidan bir nechta ro'yxatlar tashkil qilingan. Ular orasida ko'lami katta ro'yxatlardan biri insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatidir. Bu ro'yxatni YUNESKO yuritib boradi. Unga dunyo xalqlarining eng noyob durdonalari 24 davlat vakillaridan iborat maxsus komissiya muhokamasi asosida kiritiladi. Bugungi kungacha mazkur ro'yxatga dunyo bo'yicha 366 dan ortiq obyekt kiritilgan. Shuningdek, ushbu nufuzli tashkilotning nomoddiy madaniy merosga oid yana ikkita ro'yxati mavjud. Bular zudlik bilan muhofazaga olinishi lozim bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalari ro'yxati hamda Eng yaxshi tajribalar reestri.

Nomoddiy madaniy meros namunalarining mahalliy ro'yxatlari tuzilib, doimiy tarzda yangilanib boriladi. Mahalliy ro'yxat bu muayyan hududga xos bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hisobga olish hujjatidir. Mazkur ro'yxat viloyat miqyosida tuziladi va uni muntazam yuritishdan ko'zlangan asosiy maqsad nomoddiy madaniy meros namunalarining davlat muhofaza qilishiga erishishdan iborat. Mahalliy ro'yxatlar respublika darajasida tuziladigan Milliy ro'yxatni, Milliy ro'yxat esa o'z navbatida, dunyo bo'yicha yuritiladigan insoniyat nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro'yxatiga tavsiya etilayotgan namunalar ro'yxatini to'ldirib, yangilab boradi.

Mamlakatimizda milliy madaniyatni, xususan nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, rivojlantirish va uning ahamiyatini targ'ib etishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, 1999-yilda Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan YuNESKO tomonidan xalq og'zaki ijodining nodir durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostonining 1000 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2000-yil 14-martdagi Farmoniga asosan "O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi" unvoni ta'sis etildi, bu esa xalqimizning madaniy merosiga bo'lgan yuksak ehtiromning yorqin misolidir. 2001-yil 30-avgustda "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagi "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish ishlarini yangi bosqichga ko'tardi, tarixiy va madaniy yodgorliklarni har tomonlama o'rganish, ommalashtirish hamda targ'ib etishga yordam berdi.

Mamlakatimizda olib borilyotgan nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, rivojlantirish va uning ahamiyatini targ'ib etishga qaratilgan ishlarining izchilligini ta'kidlash joizdir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2009-yil 7-apreldagi qo'shiqchilik yo'nalishida har yili "Yagonasan, muqaddas Vatan!" respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish haqidagi Qarori buning dalilidir.

Mustaqillik va Navro'z bayramlarining mamlakatimizda davlat miqyosida keng nishonlanishi, mazkur bayramlarga bag'ishlangan asosiy tantanalarning poytaxtda chet ellik mehmonlar, diplomatik korpus vakillari ishtirokida o'tkazilishi, shuningdek, bu tadbirlarning telekanallar orqali dunyoning o'nlab mamlakatlariga translatiya qilinishi milliy nomoddiy madaniy merosimizni xalqaro miqyosda targ'ib etishning muhim omilidir.

O'zbekiston Respublikasi 2007-yil 1-dekabrda Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro Konvensiyani ratifikatsiya qildi va 2008 yil 29-apreldan boshlab uning to'la huquqli ishtirokchisiga aylandi.

YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2001-yilda bo'lib o'tgan 31-sessiyasida yangi xalqaro normativ mexanizm vazifasini o'tovchi Konvensiya yaratish rejalashtirildi. Shunday qilib, YUNESKO Bosh Konferensiyasining 2003-yil 17-oktyabrdagi 32-sessiyasida "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish" Konvensiyasi qabul qilindi. Ushbu Konvensiyada "nomoddiy madaniy meros", uning namoyon bo'lish sohalari hamda muhofazasi bo'yicha quyidagi ta'riflar berilgan. "Nomoddiy madaniy meros" tushunchasi urf-odatlarini, o'ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko'nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog'liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi, ular esa o'z **navbatida** hamjamiyatlar, guruhlar, alohida holatlarda esa muayyan shaxs madaniy merosining bir qismi sifatida tan olinganligini anglatadi[1.2-modda,1-band]. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan bunday nomoddiy madaniy meros doimo muayyan hamjamiyatlar va guruhlar tomonidan ularning atrof-muhitga, tabiatga va o'z tarixiga bog'liq holda yaratiladi va bu **ularda** o'ziga xoslikni, vorislik tuyg'usini shakllantiradi hamda shu bilan insoniyat ijodini **va** madaniy turli-tumanlikning hurmat qilinishiga ko'maklashadi.

2010-yilning 7-oktyabrida Vazirlar Mahkamasining "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 222-sonli qarori qabul qilindi.

Davlat dasturidagi vazifalar quyida aks ettirilgan 8 ta yo'nalish tarkibida jamlangan.

1. Nomoddiy madaniy merosni saqlash, muhofaza qilish va kelajak avlodga yetkazishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani hamda ma'muriy boshqaruv tizimini takomillashtirish.
2. Nomoddiy madaniy merosni ro'yxatga olish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni hujjatlashtirish.
3. Soha mutaxassislarini tayyorlash va malaka oshirish ishlarini tashkil etish.
4. Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini saqlashning amaliy chora-tadbirlari.
5. Nomoddiy madaniy merosni saqlash va uning muhofazasini tashkil etish bo'yicha olib boriladigan targ'ibot-tashviqot ishlari.
6. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish borasida hamkorlik tarmog'ini rivojlantirish.
7. Nomoddiy madaniy meros targ'ibotida madaniy turizm dasturlaridan keng foydalanish.
8. Nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlashni moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish.

Davlat dasturi jami 57 banddan iborat va unda kelgusi 10 yil davomida nomoddiy madaniy merosimizni muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanishning eng asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish masalalari milliy qonunchiligimizda o'z aksini topdi. Xalqaro Konvensiya va milliy qonunchiligimizda aks ettirilgan vazifalarni

bosqichma-bosqich amalga oshirish shu sohaga ixtisoslashgan tashkilot va muassasalar va ulardagi mutaxassislarning zimmasiga yuklanadi.

Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatini yuritishga quyidagilar kiradi:

- Nomoddiy madaniy meros o'ektlarini identifikatsiya qilish;
- Tegishli Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining tarmoqlari, yo'nalishlari, janrlari va uslublarini tavsiflash;
- Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini doimiy ravishda tiklovchi shaxslarni, guruhlarni ko'rsatish;
- Ma'lumotlarni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;
- Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining sifat holatini aniqlash va uning natijalari bo'yicha hisobotlar tuzish.[3.]

Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatiga kiritiladigan nomoddiy madaniy meros ob'ektni o'rganish va hujjatlashtirish ishlari, aksariyat hollarda, ob'ekt joylashgan joyda tashkil etiladi. Bu ishga davlat organlari, ilmiy institut va muassasalar hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, nomoddiy madaniy merosni asrash va ulardan foydalanish yo'nalishida faoliyat yuritayotgan va tadqiqot ishlarini olib borayotgan alohida tadqiqotchilar va mutaxassislardan mustaqil ekspertlar sifatida jalb etilishi mumkin. Bunda, Markaz belgilangan tartibda mustaqil ekspertlar bilan shartnomalar tuzadi.

Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatga kiritish ishlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Ro'yxatga kiritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning takliflari asos bo'lib xizmat qiladi. Tarixiy-madaniy ekspertiza nomoddiy madaniy merosni tegishli ro'yxatga kiritilishini asoslas maqsadida o'tkaziladi. Ekspertizani tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Respublika xalq ijodiyoti va madaniyma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi, uni o'tkazish Markaz qoshida tashkil etilgan Ilmiy-uslubiy kengash zimmasidadir. Kengash tarkibi davlat organlari, ilmiy institut va muassasalar, nodavlat, notijorat tashkilotlarning vakillari, nomoddiy madaniy merosni asrash va ulardan foydalanish yo'nalishida faoliyat yuritayotgan va tadqiqot ishlarini olib borayotgan alohida tadqiqotchilar va mutaxassislardan tashkil topadi. Xalqaro Konvensiya qabul qilinishi munosabati bilan muqaddam mavjud bo'lgan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonalari ro'yxati"ga kiritilgan Nomoddiy madaniy meros ob'ektlari yangi – "Nomoddiy madaniy merosning Reprezentativ ro'yxati"ga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2011- yil 23-fevraldagi 47-son qarori. Qarorga ko'ra nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan.

Hozirgi kunlarda nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid chora-tadbirlar davom etmoda. Joriy yilning 8-10 sentabr kunlari O'zbekistonning doimiy vakolatxonasi Parijdagi YUNESKO shtab-kvartirasida bo'lib o'tgan Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasiga a'zo davlatlar Bosh assambleyasining 8-sessiyasida ishtirok etdi.

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha Hukumatlararo qo'mita (NMMM HQ) a'zoligiga O'zbekiston nomzodini ilgari surish doirasida 2022-2026 yillarda O'zbekistonning

mamlakatdagi boy nomoddiy madaniy merosni saqlash va ko'paytirishiga doir sa'y-harakatlari taqdimoti o'tkazildi.

O'zbekiston YUNESKO Bosh qarorgohida (Parijda) bo'lib o'tayotgan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiyaga a'zo bo'lgan davlatlar Bosh assambleyasining 9-sessiyasida Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitaga a'zolikka saylandi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir o'rinbosari — Turizm va madaniy meros vaziri, YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiya raisi Aziz Abduhakimov boshchiligidagi O'zbekiston Respublikasining YUNESKODagi doimiy vakolatxonasini sa'y-harakati bilan O'zbekiston Respublikasi Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitaga 4 yilga (2022-2026) a'zo bo'ldi.

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitaning asosiy vazifalari — Konvensiya maqsadlarini ilgari surish, ilg'or tajribalar bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatish va nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish chora-tadbirlari bo'yicha tavsiyalar berishdan iborat.

Qo'mita ishtirokchi-davlatlar tomonidan nomoddiy merosni ro'yxatga kiritish to'g'risidagi so'rovlarni, shuningdek, dasturlar va loyihalar bo'yicha takliflarni ko'rib chiqadi. Qo'mita xalqaro yordam ko'rsatishga ham mas'uldir. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mita Konvensiyani amalga oshirishga tayyorgarlik ko'radi, asosan, operativ ko'rsatmalar to'plamini va Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish rejasini ishlab chiqish Konvensiyaning 25-moddasida belgilangan. U ushbu hujjatlarni Bosh Assambleyaga tasdiqlash uchun taqdim etadi. Hozirgi kunga qadar YUNESKO konvensiyasiga 180 ta davlat a'zo bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyaga 2008-yilda qo'shilgan.

Konvensiya doirasidagi YUNESKO insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasi kotibiyati tomonidan 9 ta element kiritilgan va 2022 – 2023-yillar uchun yana yangi 7 ta element nomzodnoma hujjatlari tayyorlanib, ushbu ro'yxatga kiritish uchun taqdim etildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, nomoddiy madaniy meros to'plash, o'rganish va saqlash juda muhim ahamiyat kasb etadi, shuning uchun unga tegishli bo'lgan barcha axborotmanbalarni yig'ish, uni faqat an'anaviy madaniyat nuqtai nazardan emas, balki uning amaliy va ijtimoiy-madaniy muhitini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

So'ngi yillarda yurtimizda nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilish maqsadida tashkil qilinayotgan folklor festivallari, ko'rik-tanlov va forumlar yangi bosqichga ko'tarilib, o'zgacha mazmun kasb etmoqda. Ularning har birida innovatsion yondashuvlarni ko'rish mumkin. Nomoddiy madaniy meros muhofazasi bugungi kunda mavjud bo'lgan, uning yo'qolib ketish xavflari bartaraf etilgan, keyingi avlod undan foydalanishi va bahramand bo'lishi uchun sharoit yaratilgan, shuningdek insoniyatning barqaror taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan va jamiyat undan o'z nafini ko'radigan tadbirlarni ifodalashi lozim Ushbu bebaho merosni kelajak

avlodga bekami ko'st yetkazish, uni avaylab asrash, targ'ib va muhofaza qilish uchun barchamiz birdek mas'ul bo'lib, bu yo'lda soha fidoyisi sifatida jonbozlik ko'rsatishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro konvensiya, 2003 yi 17 oktyabr Parij
2. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" (2001 yil)
3. Vazirlar Mahkamasining "2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 222-son qarori (2010 yil 7 oktyabr)
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 47-son qarori (2011 yil 23 fevral)
5. Qoraboev U. Madaniyat masalalari. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashri, 2009.
6. Nomoddiy madaniy merosni ta'lim tizimiga tatbiq etish. Respublika ilmiy seminari materiallari. –T.: "Navro'z", 2015 yil.
7. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi ro'yxati. – T.: "Kamin-Press", "Adabiyot Uchqunlari" MChJ, 2016.
8. Toshmatov O., Isaqulova N., Axmedova O., Qo'ldoshev SH., Isaqov Z. Tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlar. T.: "Tafakkur", 2017.
9. Sattorov M. O'zbek udumlari. – T.: Fan, 1993.
10. Jurayev, X. (2018). About history of resettlement policy of the Russian Empire on migration of the Russian people to the Ferghana valley (based on the sources of the "Turkestanskiy sbornik"). *Scientific journal of the Fergana State University*, 1(3), 53-55.
11. Juraev, K. The Problems Of Agronomic Assistance To The Population Interrogated To Turkestan By The Tsarist Russian Federation. *THE AMERICAN JOURNAL OF APPLIED SCIENCES*, 147.
12. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 760-764.
13. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 йилларда Ўзбекистонда ижтимоий таъминот тизими. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 332-339.
14. Усмонов, А. (2022). Ўзбекистон аҳолисининг ижтимоий-моддий аҳволи (1930-1980 йиллар). *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 270-275.
15. Каримова, Г. Й. (2021). MORALITY AS AN IDEOLOGICAL METHOD OF FIGHTING SPIRITUAL THREATS. *Экономика и социум*, (6-1), 707-710.
16. Juraev, H. P. (2021). Assistance to the Residents of the Turkestan Region and their Activities in the Economic Sector. *Design Engineering*, 6988-6997.